ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 31.03.2026 · Accepted: 14.06.2026 · Published: 30.06.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/jqrmgf50

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
MILLIY MADANIYAT JURNALI, 2 (2), 2026
www.jnculture.uz

Samarqand madrasalarida musiqa ilmi va vorisiylik an’nalari

(Music Science and Traditions of Succession in Samarkand Madrasas)

Muzaffar Tashpulatov

Department of Music History and Criticism,
The State Conservatory of Uzbekistan
100027, Botir Zokirov, 1.
Uzbekistan/ Tashkent
ORCID: https://orcid.org/0009-0009-5226-4247
E-mail: muzaffar-tashpulatov@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqola Samarqand madrasalarida musiqa ilmining shakllanishi, rivojlanishi va vorisiylik an’analarini tarixiy manbalar asosida tahlil qiladi., Amir Temur va Mirzo Ulug‘bek davrida barpo etilgan Ulug‘bek, Sherdor hamda Tillakori madrasalari musiqa nazariyasini matematika, falsafa va ilohiyot bilan uyg‘unlikda o‘qitgan muhim ilmiy markazlar bo‘lgan. Temuriy hukmdorlarning ko‘pchiligi musiqa sohasida chuqur bilimga ega bo‘lgan; jumladan, Sulton Husayn Boyqaro mohir nog‘orachi sifatida tanilgan, Bobur Mirzo o‘zining “Chorgoh” savtini yaratgan, Alisher Navoiy esa qonun, ud, tanbur va setorda yuksak ijro mahoratiga ega bo‘lib, “Qari Navo” asarini ixtiro qilgan. Navoiy dastlab Xoja Yusuf Burhondan, so‘ngra Abdurahmon Jomiydan musiqa ilmini puxta egallaganligi e`tirof etilgan, Abdulqodir Marog‘iyning “Maqosidu-l-alhon” va “Jome’u-l-alhon” kabi risolalari madrasalarda asosiy musiqiy darslik vazifasini o‘taganligi maqolada bayon etilgan, Ustoz-shogird vorisiyligi orqali musiqa ilmi amaliy jihatdan sayqallanib, 1928 yilda tashkil etilgan Samarqand musiqa va xoreografiya instituti mazkur an’anani ilmiy asosda tikladi. Shu tariqa madrasalar musiqiy-ilmiy bilimlarning uzatilishida hal qiluvchi rol o‘ynagan va zamonaviy musiqashunoslikka asos yaratganligi maqolada o`z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: Samarqand madrasalari, musiqa ilmi, vorisiylik an’analari, ustoz-shogird, Shashmaqom, Temuriylar davri, Abdulqodir Marog‘iy, Alisher Navoiy, Fathulloh Shirvoniy, ilm al-musiqiy.

Abstract

This article analyzes the formation, development, and traditions of succession of music science in the madrasas of Samarkand based on historical sources. The Ulugh Beg, Sherdor, and Tillakori madrasas, built during the eras of Amir Timur and Mirzo Ulugh Beg, were important scientific centers where music theory was

Отформатировано: Отступ: Первая строка: 0 см

Отформатировано: Отступ: Первая строка: 0 см, интервал Перед: 0 пт, после: 0 пт

Отформатировано: Отступ: Первая строка: 0 см, интервал Перед: 0 пт, после: 0 пт

Отформатировано: Отступ: Первая строка: 0 см

Отформатировано: Отступ: Первая строка: 0 см, интервал Перед: 0 пт, после: 0 пт

удалено: State Conservatory of Uzbekistan,¶

удалено: Tashkent city, str. Almazar,1¶
Uzbekistan/ Tashkent¶
E-mail: muzaffar-tashpulatov@mail.ru;¶
Orcid https://orcid.org/0009-0009-5226-4247¶

отформатировано: английский (США)

отформатировано: английский (США)

отформатировано: английский (США)

отформатировано: английский (США)

отформатировано: английский (США)

отформатировано: английский (США)

удалено: Mazkur maqolada Samarqand madrasalarida musiqa ilmining shakllanishi, rivojlanishi va ustoz-shogird an’analari asosida avloddan-avlodga yetkazilishi masalalari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Amir Temur va Mirzo Ulug‘bek davrida barpo etilgan Ulug‘bek, Sherdor va Tillakori madrasalari musiqiy-nazariy bilimlarning matematika va falsafa bilan integratsiyalashgan holda o‘qitilgan muhim ilmiy markaz sifatida ochib berilgan. Temuriy hukmdorlar, jumladan, Sulton Husayn Boyqaro, Bobur Mirzo va Alisher Navoiyning musiqa sohasidagi bilimlari va ijodiy merosi misolida madrasalarning ilmiy-madaniy muhiti ko‘rsatib o‘tilgan

отформатировано: Шрифт: полужирный

отформатировано: английский (США)

удалено: Samarqand madrasalari, musiqa ilmi, vorisiylik an’analari, ustoz-shogird, Shashmaqom, Temuriylar davri, Abdulqodir Marog‘iy, Alisher Navoiy, Fathulloh Shirvoniy, ilm al-musiqiy

отформатировано: английский (США)

taught in harmony with mathematics, philosophy, and theology. Most Timurid rulers possessed deep knowledge of music; for example, Sultan Husayn Bayqara was known as a skilled naqqara player, Babur Mirza created the sawt "Chorgoh," and Alisher Navoi, a virtuoso performer on the qanun, oud, tanbur, and setar, invented the piece "Qari Navo." It is recognized that Navoi thoroughly mastered the science of music first under Khwaja Yusuf Burhan and then under Abdurrahman Jami. The article states that the treatises of Abd al-Qadir Maraghi, "Maqasid al-alhan" and "Jami al-alhan," served as the main music textbooks in the madrasas. Through the master-student succession, music science was refined in practice, and the Samarkand Institute of Music and Choreography, established in 1928, revived this tradition on a scientific basis. Thus, the article reflects that the madrasas played a decisive role in transmitting musical-scientific knowledge and laid the foundation for modern musicology.

Keywords: Samarkand madrasas, music science, traditions of succession, master-student, Shashmaqom, Timurid period, Abd al-Qadir Maraghi, Alisher Navoi, Fathullah al-Shirwani, 'ilm al-mūsīqī.

Аннотация

Настоящая статья анализирует формирование, развитие и традиции преемственности музыкальной науки в медресе Самарканда на основе исторических источников. Медресе Улугбека, Шердор и Тиллакори, построенные в эпоху Амира Темура и Мирзо Улугбека, являлись важными научными центрами, где теория музыки преподавалась в гармонии с математикой, философией и богословием. Большинство темуридских правителей обладали глубокими знаниями в области музыки; так, Султан Хусейн Байкара был известен как искусный исполнитель на нагаре, Бабур Мирза создал савт «Чоргох», а Алишер Навои, виртуозно владевший кануном, удом, танбуром и сетаром, изобрёл произведение «Кари Наво». Признаётся, что Навои основательно овладел музыкальной наукой сначала у Ходжи Юсуфа Бурхана, а затем у Абдурахмана Джами. В статье излагается, что трактаты Абд аль-Кадира Мараги «Макасид аль-алхан» и «Джами аль-алхан» выполняли функцию основных учебников по музыке в медресе. Благодаря преемственности «устоз-шогирд» музыкальная наука отшлифовывалась практически, а созданный в 1928 году Самаркандский институт музыки и хореографии восстановил эту традицию на научной основе. Таким образом, в статье отражено, что медресе сыграли решающую роль в передаче музыкально-научных знаний и заложили основу современного музыковедения.

Ключевые слова: Самаркандские медресе, музыкальная наука, традиции преемственности, устоз-шогирд, Шашмаком, эпоха Темуридов, Абд аль-Кадир Мараги, Алишер Навои, Фатхуллах аш-Ширвани, ильм аль-мусики.

удалено: This article explores the formation, development, and transmission of music science ('ilm al-mūsīqī) in the madrasas of Samarkand through the lens of historical sources. It demonstrates that during the reign of Amir Timur and Mirzo Ulugh Beg, the Ulugh Beg, Sherdor, and Tillakori madrasas served as significant centers where musical theory was taught in close connection with mathematics and philosophy. The musical knowledge and creative legacy of Timurid rulers—particularly Sultan Husayn Bayqara, Babur Mirza, and Alisher Navoi—illustrate the intellectual and cultural environment fostered by these institutions

отформатировано: Шрифт: полужирный

отформатировано: английский (США)

удалено: Samarkand madrasas, music science, traditions of succession, master-student, Shashmaqom, Timurid period, Abd al-Qadir Maraghi, Alisher Navoi, Fathullah al-Shirwani, 'ilm al-mūsīqī

удалено: В статье на основе исторических источников анализируются становление, развитие и передача музыкальной науки (ильм аль-мусики) в медресе Самарканда в рамках традиции «устоз-шогирд». Показано, что в эпоху Амира Темура и Мирзо Улугбека медресе Улугбека, Шердор и Тиллакори выступали важными научными центрами, где музыкальная теория преподавалась в тесной интеграции с математикой и философией. На примере музыкальных познаний и творческого наследия темуридских правителей – Султана Хусейна Байкары, Бабура-мирзы и Алишера Навои – раскрывается интеллектуально-культурная среда этих учебных заведений.¶ Ключевые слова: самаркандские медресе, музыкальная наука, традиции преемственности, устоз-шогирд, Шашмаком, эпоха Темуридов, Абд аль-Кадир Мараги, Алишер Навои, Фатхуллах аш-Ширвани, ильм аль-мусики.

отформатировано: Шрифт: полужирный

Отформатировано: интервал после: 0 пт

отформатировано: Шрифт:

Samarqand ko‘p asrlar davomida nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki ilm-fan va san’atning yirik markazi sifatida shakllangan. Ayniqsa, Amir Temur va Mirzo Ulug‘bek davrida shaharda qad rostlagan madrasalar – Ulug‘bek, Sherdor va Tillakori madrasalari – aniq fanlar, falsafa va ilohiyot kabi sohalarda yetuk olimlarni tarbiyalagan. Ushbu ta’lim muassasalarida musiqa ilmining tutgan o‘rni uzoq vaqt davomida tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qolgan. G‘arb tasavvuridagi “musiqa”dan farqli ravishda, O‘rta asrlar musulmon Sharqida musiqa nazariyasi (ilm al-musiqi) matematika, falsafa bilan uzviy bog‘liq amaliy fan sifatida madrasa dasturlariga kiritilgan edi.

Tarixga nazar tashlasak juda ko‘plab shoh va hukmdorlar musiqaga qiziqib, ularning o‘zlari ham bevosita kuy yaratganlar yoki muayyan cholg‘uda ijro etishga ishtiyoq bildirganlar. Ko‘plab temuriy hukmdorlar ham o‘z navbatida musiqaga alohida qiziqish bildirganlar, ulardan ba’zilari bu sohani mukammal idroklashgan. Bir qator tarixiy manbalar guvohlik beradiki, Shohrux Mirzo, Mironshoh, Xalil Sulton, Ulug‘bek Mirzo, Abulqosim Bobur Mirzo, Husayn Boyqaro, Boysung‘ur Mirzo, Sulton Badiuzzamon Mirzo, Umarshayx Mirzo, Bobur Mirzo kabi Temuriy hukmdorlar o‘z majlislarida she’riyat, musiqa va san’at ahliga alohida ehtirom ko‘rsatganlar.

Xususan bu borada Sulton Husayn Boyqaroning nafaqat musiqa bilimdoni, balki mohir musiqachi, nog‘orachi bo‘lganligi quyidagi hikoyada o‘z ifodasini topgan: “Bir kuni Sulton Husayn o‘ziga yaqin zotlar bilan o‘tirib, mayxo‘rlik qiladi. Musiqa ahli esa o‘z naqqoraxonasida ijro etib turibdi. Shunda Husayn Boyqaro qullardan biri Kofurga naqqoraxona mehtari uchun bir qadah may berishlarini buyuradi. Kofur qadahdagi may bilan naqqoraxonaga kirayotganda ostonaga qoqilib, may to‘la qadahni sindirib qo‘yadi. Buni ko‘rgan Said Ahmad bir zumda badiha tarzida hafif usulida xorazmcha usulni ijro etadi. Garchi biror bir so‘z bo‘lmasa-da, musiqaning kayfiyatidan Sulton Husayin qanday hodisa yuz

удалено: ¶
¶
удалено: –
удалено: –
отформатировано: русский
отформатировано: русский
отформатировано: русский
отформатировано: русский
отформатировано: русский
отформатировано: русский
отформатировано: русский
отформатировано: русский
отформатировано: русский
отформатировано: русский
отформатировано: русский
отформатировано: русский
отформатировано: русский

berganligini fahmladi va Alisher Navoiyga murojaat qilib shunday xitob qildi: “Har qanday shubhadan xoli ravishda aytishim mumkinki, Kofur may to‘la qadahni sindiribdi!” Tez orada xuddi shunday bo‘lganligi haqida xabar keltirishdi”.

Shuningdek, Temuriy sarkarda Bobur Mirzoning ham musiqada ko‘plab asarlar yaratgani ma’lum. O‘zining “Boburnoma” asarida shunday deydi: “.... Mullo Yorak “Panjgoh”da “Muxammas” davrida bog‘lag‘on naqshini o‘tkardi. Yaxshi naqsh bog‘labtur. Necha mahal edi, mundoq nimalarg‘a mashg‘ulluq qilmaydur edi. Manga ham dag‘dag‘a bo‘ldi, bir nima bog‘lag‘aymen. Bu taqrib bila “Chorgoh” savtini bog‘ladim. Nechukkim, mahallida mazkur bo‘lg‘usidur” [1, b.228].

Bundan tashqari, Navoiy homiyligida Hirotda ko‘zga ko‘ringan ko‘plab, ijrochi sozandalar ham yetishib, davr madaniyatini gullab-yashnashiga hissa qo‘shganlar. Alalxusus, Navoiyning o‘zi qonun ud, tanbur va setor cholg‘ularining mohir ijrochisi bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlar ham mavjud. Quyida Xondamirning “Xulosat ul-axbor fi ahvol ul-ahyor” (“Xayrli kishilar ahvolida (jahon) xabarlarining xulosasi” asaridan bir parcha keltirilgan: “Oliyhazrat amir Alisher musiqa ilmida ham shu qadar mahorat hosil qilgan edilarki, agar muallimi soniy Abu Nasr Forobiy hayot bo‘lganlarida unga shogirdlik sirg‘asini qulog‘iga taqib olardi. Qonun-u udda zo‘r ta’lim olgan. Binobarin, sozanda ahlining ko‘pchiligi oliyhazratning mulozamatida bo‘ladilar” [2, b.78].

Shu o‘rinda Fitratga murojaat qilamiz: “Navoiyning o‘zi musiqiyni Xoja Yusuf Burhon degan atoqli bir musiqiy olimdan o‘rgandi. Musiqiyning nazariy-amaliy yoqlaridan yaxshi bilar edi. Bobur Mirzo o‘zining mashhur asarida Navoiyning asarlarini sanar ekan, «Yana ilmi musiqiyda yaxshi nimalar bog‘labdur, yaxshi «naqsh”lari, yaxshi “peshrav”lari bordur» deb Navoiyning usta bir bastakor bo‘lg‘anini ko‘rsatadir».Chunonchi, A. Fitratning “Qari Navo” kuylarini Alisher Navoiy asari ekanligi e’timoli kuchlanib qoladir degan so‘zlarini “Tavorixi musiqiyun” muallifi Ne’matulloh ibn Mo‘jiziy keltirgan ma’lumotlar yana bir karra

tasdiqlaydi: “Sakkizinchi piri Hazrat Amir Nizomiddin Alisher Navoiydur. Bu azizning umum fazlu sharofatlari o‘zlari putgan she’r-kitoblaridan ma’lumdur. Kulliyot, “Chahor devon”lari, “Xamsa”lari, bulardin boshqa ilgari-keyin, ko‘b-oz bo‘lub putgan o‘tuz olti farcha kitoblaridin faqir bahramand bo‘lib, o‘zlaridagi xislat va ishqu muhabbatlarini ma’lum qildim. Bu yo‘sunlug‘ sharif ilmlarining ustiga pir-ustodlari hazrat Jomiydin musiqiy fanini xo‘b o‘rgandilar. Har kecha-har kecha setor, tanburlarini chalib, o‘zlari aytqon g‘azallar bilan hamd aytib behush bo‘lur erdilar. Navo degan bir maqomni ixtiro qilib olamga shoe’ bo‘ldilar”. [3, b.56].

Ma’lumki, Temuriylar hukmronligi davrida madaniy taraqqiyot yuksalib, natijada Samarqand, Hirot va Buxoro uchburchagida yangi va markazlashgan ilmiy muhit paydo bo‘ldi. Qisqa davr ichida 100 dan ortiq madrasalar barpo etildi.Ushbu madrasalar orasida biz uchun muhim ahamiyatga ega: Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasi qo‘shimcha ravishda Buxoroda tashkil etilgan Ulug‘bek madrasasi (tugallanishi: 820/1417) o‘zining yuksak badiiy qiymati bilan ajralib turdi va Markaziy Osiyodagi madrasalarning me’moriy xususiyatlari uchun namuna bo‘ldi. Tarixchi Bartoldning ma’lumotlariga ko‘ra 1841-1842 yillarda ushbu madrasaga tashrif buyurgan rus sayyohi N.Xanykov uning to‘liq faol va ishlayotganligini ta’kidlagan. [4, b.102].

“Boburnoma”da Hirotlik shoir va musiqachi Kamoliddin Binoiy va Alisher Navoiylar haqida qiziq ma’lumotlar uchraydi: «Yana biri Binoiy edi. Otasi ustod Muhammad Sabz banno uchun mundoq taxallus qilibtur... Burunlar musiqiydin bexabar ekandur, bu jihattin Alisherbek ta’n qilur ekandur. Bir yil mirzo Marvg‘a qishlay borg‘anda Alisherbek ham borur. Binoiy Hiriyda qolur. Ul qish musiqiy mashq qilur, yozgacha oncha bo‘lurkim, ishlar bog‘lar, Yoz Mirzo Hiriy kelganda savt va naqsh o‘tkarur. Alisherbek taajjub qilib tahsin qilur. [1, b.78].Yuqoridagi jumlalardan ko‘rinib turibdiki, ahli fuzalo orasida musiqiydan xabardor bo‘lish har bir ijodkor uchun tom ma’noda farz bo‘lgan. Bu jihatdan Navoiyning Binoiyga

e'tirozi bir tomondan bu davrda musiqaga bo'lgan yuksak munosabatning bir ko'rinishi hisoblansa, musiqiy bilimsizligini ta'na qilishi esa Navoiyning bu borada ancha salohiyat egasi ekanligini ko'rsatadi.

Temuriylar davridagi madrasalar, ularning o'qituvchilar tarkibi va uning iyerarxik tuzilishi, talabalarning tashkiliy faoliyati, o'qitiladigan darslar va kitoblar bo'yicha ma'lumotlar ko'p emas. Ma'murlar va o'qituvchilar tomonidan mavzuni tanlashi bu masalani yanada murakkablashtiradi. Masalan, tarjimayi hollar (tabaqat) va tarixiy kitoblarda Hirot va uning atrofidagi madrasada diniy ta'lim to'g'risida batafsil ma'lumotlar berilgan, ammo aniq fanlar matematik ta'lim hamda musiqiy ta'lim to'g'risida faqat umumiy baho berilgan.

Taniqli olimlardan Fathulloh Shirvoni 1435-yilning o'rtalarigacha Samarqandga, Samarqand madrasasiga borib, bir qator asarlar bitadi. Fathalloh ash-Shirvaniy o'z vaqtida matematik fanlarning bir bo'lagi deb hisoblangan musiqa sohasida ham "Majalla fi al-musiqa" nomli asarini yozgan. U bu risolani Sulton Mehmedga bag'ishladi. Bu kitob yunon faylasuflarining bu boradagi g'oyalarini, shuningdek, mashhur islom musiqasi nazariyotchilari Safiuddin al-Urmaviy va Abdulqodir Marog'iy kabi musiqa nazariyotchilarning fikrlarini o'z ichiga olgan keng tarixiy nuqtayi nazardan yozilgan.

Samarqanddagi besh yillik o'qishidan keyin Fathulloh Shirvanga qaytib keldi (1440). Xususan, uning ma'lumotiga ko'ra Ulug'bek har haftada bir yoki ikki kun ma'ruzalarda qatnashar edi; madrasaning barcha o'qituvchilari unga hamroh bo'lishadi; va Ulug'bek ushbu ma'ruzalarda har safar qatnashganida, matematik fanlarga oid ko'rsatmalar berilishini xohlar edi. [5, b.64]. Shirvaniy guvohlik berishicha madrasada tahsil olishda uchta talab borligini aytiladi: o'qish (qir'a), tinglash (simac) va o'qitish (mutalica).

Samarqanddagi musiqa nazariyotchilari orasida Xo'ja Abdulqodir Marogiy (1353–1435) nomini alohida tilga olish lozim. U Hirot va Samarqandda yashab ijod

отформатировано: английский (США)
удалено: nazariyachilari

etgan, Temuriylar saroyida xizmat qilgan va “Maqosidu-l-alhon”, “Jome’u-l-alhon” singari risolalari bilan Sharq musiqashunosligiga ulkan hissa qo‘shgan. Uning intervallarning aniq matematik ifodasiga bag‘ishlangan izlanishlari Samarqand madrasalarida musiqa ilmi bo‘yicha asosiy darslik vazifasini bajargan.

Shuningdek, bugungi kunda Ulug‘bek madrasai oliyasining haqiqiy vorisi hisoblanmish Samarqand Davlat Universitetining mazkur alma-mater bilan uzviy rishtalari Akademik Bartold ma’lumotlariga ko‘ra yanada yaqinlashdi. Ya’ni Turkistonga tashrif buyurgan rus sayyohining ma’lumotiga ko‘ra ushbu madrasa 1841-1842-yilar oralig‘ida qizg‘in faoliyat yuritgan. Tarix silsilasining keyingi suronli davrlarida bu jarayon biroz sustlashgan ammo to‘xtab qolmagan deb ishonch bilan ta’kidlash mumkin.

XIX asr oxirlariga kelib o‘zbek musiqiy madaniyatida o‘zgarishlar davri boshlandi. Bu albatta, Turkiston o‘lkasini Rossiya tomonidan istilo qilinishi bilan bog‘liqdir. Bu borada ikki tomonlama qarash bilan o‘rganmoq zarur bo‘ladi. Chunki ba’zi hollarda milliy musiqa madaniyatimizga salbiy ta’sirini kuzatsak, ikkinchi tomondan, o‘ziga xos rivojlanish davri bo‘lganligini ham e’tirof etish zarur bo‘ladi. Chunki nota yozuvining kirib kelishi, o‘lkamizda milliy musiqa san’atimizni ilmiy ravishda o‘rganish, folklor va etnografiya sohasidagi rivojlanishga sezilarli ta’sir etdi.

1928-yilda Samarqand musiqa va xoreografiya instituti o‘z faoliyatini boshladi. Institutning rahbari N.N.Mironov edi. Institut o‘z oldiga xalq ijodiyotini tadqiq etish, milliy va Yevropa raqs san’atlarini o‘rgatish va musiqa tarixiga oid ma’lumotlari to‘plash, hamda nota namunalarini yaratishdek ulkan vazifalarni maqsad qilib qo‘ygan edi. Bu dargohda asosan mumtoz musiqa – Shashmaqom targ‘iboti va ta’limi yo‘lga qo‘yildi.

Vorisiylik an’analarining misoli sifatida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Samarqandda faoliyat yuritgan mashhur maqomchilar sulolasi – Levi Boboxonov,

удалено: Russiya

отформатировано: английский (США)

удалено: bahzi bir

удалено: –

удалено: –

удалено: –

Hoji Abdulaziz Rasulov kabi hofiz va sozandalarni keltirish mumkin. Ularning ko‘pchiligi dastlabki musiqiy bilimlarni madrasalarda, ayrimlari esa Ulug‘bek madrasasi yonidagi kutubxonalarda saqlangan musiqiy risolalar orqali egallagan. Bu davrda musiqa ilmi rasmiy dars jadvalidan chiqib ketgan bo‘lsa-da, madrasalarning intellektual muhiti va qo‘lyozma resurslari vorisiylikni saqlab qolishga xizmat qilgan.

XX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan yangi, yevropacha toifadagi musiqiy tafakkur va milliy musiqiy qadriyatlar O‘zbekiston zaminida muvoziy tarzda rivojlanib, ijodiy yutuqlarga erishildi. G‘arbiy va Sharqiy Ovrupa mamlakatlari tajribasidan unumli foydalanibgina qolmay, o‘zgacha yaratuvchanlik qonun-qoidalarini o‘zlashtirish, uni o‘zbek xalq musiqasining boy imkoniyatlari bilan mohirona payvand qilish maqsadida ilg‘or kompozitorlarimiz nafaqat Markaziy Osiyo, balki Sharq mintaqasi doirasida ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘ldilar.

Samarqand madrasalari O‘rta asrlardan boshlab musiqa ilmini rivojlantirish va avloddan avlodga yetkazishda muhim ilmiy-ma’rifiy muassasalar sifatida xizmat qilgan. Ushbu madrasalarda musiqa nazariyasi matematika va falsafa bilan integratsiyalashgan holda o‘rgatilib, amaliy mahorat ustoz-shogird vorisiyligi orqali sayqal topgan. Ana shu ikki yo‘nalishning uzviy aloqasi Samarqand musiqiy maktabining o‘ziga xosligini belgilab, Buxoro Shashmaqomi kabi durdona merosning shakllanishiga olib kelgan. Bugungi kunda ushbu an’anaviy vorisiylikning ilmiy asoslarini tadqiq etish nafaqat tarixiy-nazariy, balki zamonaviy musiqa ilmi uchun ham amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobur Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. – B. 228.
2. Xondamir. Xulosat ul-axbor fi ahvol ul-ahyor // Navoiy zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1985. – B. 78.
3. Mo‘jiziy I. Tavorixi musiqiyun. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. – B. 56.

отформатировано: Шрифт: 12 пт

Отформатировано: Отступ: Первая строка: 0 см, интервал Перед: 0 пт

Отформатировано: По ширине, Отступ: Слева: -0,13 см, интервал Перед: 0 пт, после: 0 пт, Поз.табуляции: нет в 1,27 см

Отформатировано: По ширине, Отступ: Слева: -0,13 см, Поз.табуляции: нет в 1,27 см

4. Barthold V. Ulugh-Beg // Four Studies on the History of Central Asia. Vol. 2 / trans. V. Minorsky, T. Minorsky. – Leiden : Brill, 1958. – P. 119–120.
5. Fazlıoğlu İ. The Samarqand Mathematical-Astronomical School: A Basis for Ottoman Philosophy and Science // Journal for the History of Arabic Science. – 2008. – Vol. 14. – P. 3–68.

References

1. Bobur, Zahiriddin Muhammad. *Boburnoma* [The Baburnama]. Tashkent: Yulduzcha, 1989. (in Uzbek)
2. Xondamir. “Xulosat ul-axbor fi ahvol ul-ahyor” [Summary of Reports on the Conditions of Virtuous People]. In *Navoiy zamondoshlari xotirasida* [Navoi in the Memories of His Contemporaries], 78. Tashkent: Adabiyot va san’at, 1985. (in Uzbek)
3. Mo‘jiziy, Ismatulloh. *Tavorixi musiqiyun* [Histories of Musicians]. Tashkent: Mumtoz so‘z, 2010. (in Uzbek)
4. Barthold, Vasilii V. “Ulugh-Beg.” In *Four Studies on the History of Central Asia*. Vol. 2. Translated by V. Minorsky and T. Minorsky. Leiden: Brill, 1958.
5. Fazlıoğlu, İhsan. “The Samarqand Mathematical-Astronomical School: A Basis for Ottoman Philosophy and Science.” *Journal for the History of Arabic Science* 14 (2008): 3–68.

удалено: Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” T., 1989-228¶
“Navoiy zamondoshlari xotirasida”. T.:1985.:// Xondamir “Xulosat ul-axbor fi ahvol ul-ahyor” B.78.¶
Ismatulloh Mo‘jiziy “Tavorixi musiqiyun” T.:2010. –56.¶
Barthold, UlughBeg, pp. 119–120 (Turkish trans. p. 102.¶
Ihsan Fazlioğlu Department of Philosophy, Istanbul University, Turkey -The Samarqand Mathematical-Astronomical School:A Basis for Ottoman Philosophy and Science.–64.¶
References¶

Отформатировано: По ширине, Отступ: Слева: -0,13 см, интервал Перед: 0 пт, после: 0 пт, Поз.табуляции: нет в 1,27 см

удалено: Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”. T., 1989. – B. 228. (Zahiriddin Muhammad Babur. Baburnama. Tashkent, 1989. – P. 228. (in Uzbek)¶
“Navoiy zamondoshlari xotirasida”. T.: 1985. // Xondamir. “Xulosat ul-axbor fi ahvol ul-ahyor”. – B. 78. (In Memory of Navoi’s Contemporaries. Tashkent, 1985. // Khondamir. The Summary of Reports on the Conditions of the Virtuous. – P. 78. (in Uzbek)¶
Mo‘jiziy Ismatulloh. “Tavorixi musiqiyun”. T.: 2010. – B. 56. (Ismatulloh Mo‘jiziy. Histories of Musicians. Tashkent, 2010. – P. 56. (in Uzbek)¶
Barthold, V.V. Ulugh Beg. pp. 119–120 (Turkish trans. p. 102). (Bartold, V.V. Ulugh Beg. [original Russian edition], pp. 119–120; Turkish translation, p. 102.) (in Russian)¶
Fazlioğlu Ihsan. “The Samarqand Mathematical-Astronomical School: A Basis for Ottoman Philosophy and Science.” – P. 64. (İhsan Fazlıoğlu. The Samarqand Mathematical-Astronomical School: A Basis for Ottoman Philosophy and Science. – P. 64. (in Turkey)